

**INTELLEKTUAL MULK OBYEKTLARINI RO'YXATDAN O'TKAZISH  
JARAYONIDA KORRUPSIYAVIY XAVF-XATARLARNI  
MINIMALLASHTIRISHNING HUQUQIY MEXANIZMLARI**

**Javlonbek Jo'rayev**

Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish  
instituti katta o'qituvchisi  
e-mail: javlon-juraev@mail.ru

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada intellektual mulk obyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan korrupsiyaviy xavf-xatarlar, ularning huquqiy tabiati va ularni minimallashtirish mexanizmlari kompleks tahlil qilingan.

Intellektual mulk obyektlarini ro'yxatdan o'tkazish tizimida shaffoflikni ta'minlash, inson omilini qisqartirish, elektron ekspertiza mexanizmlarini kengaytirish va korrupsiyaviy risklarni baholashning huquqiy vositalarini takomillashtirish bo'yicha takliflar ilgari surilgan.

**Kalit so'zlar:** intellektual mulk, patent, tovar belgisi, davlat ro'yxatidan o'tkazish, korrupsiyaviy xavf, raqamlashtirish, elektron davlat xizmati, huquqiy mexanizm, ekspertiza, shaffoflik.

**Аннотация**

В данной статье представлен комплексный анализ коррупционных рисков, которые могут возникнуть в процессе государственной регистрации объектов интеллектуальной собственности, их правовой природы и механизмов их минимизации.

Выдвинуты предложения по обеспечению прозрачности в системе регистрации объектов интеллектуальной собственности, сокращению человеческого фактора, расширению механизмов электронной экспертизы и совершенствованию правовых инструментов оценки коррупционных рисков.

Ключевые слова: интеллектуальная собственность, патент, товарный знак, государственная регистрация, коррупционный риск, цифровизация, электронная государственная услуга, правовой механизм, экспертиза, прозрачность.

### **Abstract**

This article provides a comprehensive analysis of corruption risks that may arise during the state registration of intellectual property objects, their legal nature, and mechanisms for their minimization.

Proposals have been put forward to ensure transparency in the intellectual property registration system, reduce the human factor, expand electronic expertise mechanisms, and improve legal tools for assessing corruption risks.

**Keywords:** intellectual property, patent, trademark, state registration, corruption risk, digitalization, electronic government service, legal mechanism, expertise, transparency.

Bugungi kunda intellektual mulk iqtisodiy taraqqiyotning asosiy omillaridan biri sifatida namoyon bo'lib, mamlakatlarning innovatsion salohiyati, investitsiyaviy jozibadorligi va raqobatbardoshligini belgilab beruvchi muhim huquqiy institut hisoblanadi.

Intellektual mulk obyektlarini huquqiy muhofaza qilishning muhim bosqichlaridan biri ularni davlat ro'yxatidan o'tkazish jarayoni hisoblanadi. Mazkur jarayonda vakolatli davlat organlari tomonidan talabnomalarni qabul qilish, ekspertiza o'tkazish, qaror qabul qilish va tegishli muhofaza hujjatlarini berish kabi ma'muriy vazifalar amalga oshiriladi.

Biroq ushbu jarayonlarda davlat organi va ariza beruvchi o'rtasidagi ma'muriy munosabatlarning mavjudligi, ekspertiza jarayonining murakkabligi

hamda ayrim qarorlarni qabul qilishda inson omilining ishtirok etishi korrupsiyaviy xavflarni keltirib chiqarishi mumkin.

Korrupsiyaviy xavf-xatarlar intellektual mulk sohasida boshqa davlat xizmatlariga nisbatan o'ziga xos xususiyatlarga ega. Chunki patent yoki tovar belgisini ro'yxatdan o'tkazish jarayonida qabul qilinadigan qarorlar shaxsning iqtisodiy manfaatlariga bevosita ta'sir ko'rsatadi. **Masalan**, *ekspertiza natijalarini asossiz o'zgartirish, talabnomalarni ko'rib chiqish muddatlarini sun'iy ravishda uzaytirish yoki muayyan shaxslarga ustunlik berish kabi holatlar intellektual mulk tizimiga bo'lgan ishonchni susaytirishi mumkin.*

### **1. O'zbekistonda intellektual mulk sohasida amalga oshirilgan islohotlar va qonunchilikni takomillashtirish jarayonlari**

O'zbekiston Respublikasida intellektual mulk sohasini rivojlantirish, uning huquqiy himoyasini kuchaytirish va xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish masalalari davlat siyosatida ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida belgilangan.

Xususan, ixtirolar, foydali modellar, sanoat namunalari, tovar belgilari, mualliflik huquqi va turdosh huquqlarni muhofaza qilishga qaratilgan maxsus qonunlar qabul qilindi. Ushbu normativ-huquqiy baza keyinchalik xalqaro shartnomalar talablari va raqamli iqtisodiyot ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda takomillashtirib borildi.

Shuningdek, intellektual mulkni himoya qilish borasida qator ishlar amalga oshirilmoqda. Ma'lumotlarga ko'ra, 2025 yilda 3 ming 800 ta, joriy yilning birinchi yarmida 2 ming 200 ta intellektual mulk obyektlarining huquqiy himoyasi ta'minlandi.

Bu davrda 60 mingdan ortiq kontrafakt mahsulotlari aniqlanib, 15 mingdan ortig'i sud qarorlari bilan yo'q qilindi. Huquqbuzar yuridik shaxslarga

nisbatan 2025 yilda 1,8 milliard so'm, 2026 yilning o'tgan davrida 1,1 milliard so'm moliyaviy jarimalar qo'llanildi.

Intellectual mulk huquqini buzgan shaxslarga nisbatan 2025 yilda 168 ta, joriy yilda 269 ta ma'muriy materiallar qo'lga kiritildi. Bu raqamlar intellektual mulk sohasida qonun ustuvorligi ta'minlanayotgani, huquqbuzarlikka murosasiz munosabat qaror topayotganidan darak beradi.

Intellectual mulk agentligining Adliya vazirligi tizimida faoliyat yuritishi sohada huquqiy yondashuvlarni kuchaytirish, normativ hujjatlarni bir xil qo'llash va davlat xizmatlarining sifati ustidan nazoratni oshirish imkonini berdi. Bu esa intellektual mulk obyektlarini ro'yxatdan o'tkazish jarayonlarida shaffoflikni ta'minlash va korrupsiyaviy omillarni kamaytirishga xizmat qiluvchi muhim institutsional choralardan biri bo'ldi.

Adliya organlariga kontrafakt mahsulotlarni aniqlash bo'yicha nazorat xaridlarini mustaqil tashkil etish, huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan hamkorlikda yashirin ishlab chiqarish holatlarini fosh etish vakolatlari berildi. O'zbekiston Patent vakillari assotsiatsiyasi tashkil etildi hamda patent vakillarining sudlarda ishtirok etish huquqi mustahkamlandi.

2026 yil birinchi yarim yilligida o'tgan yilning shu davriga nisbatan patentlarga talabnomalar va berilgan patentlar soni 43 foizga, tovar belgilari, EHM dasturlari va ma'lumotlar bazalariga berilgan guvohnomalar 35 foizga o'sdi.

Sohadagi yana bir muhim yo'nalish intellektual mulk obyektlarini ro'yxatdan o'tkazish tartiblarini soddalashtirish va ma'muriy to'siqlarni qisqartirish bilan bog'liqdir.

Amaliyotda korrupsiyaviy xavflarning kelib chiqishiga sabab bo'luvchi omillardan biri ortiqcha byurokratik jarayonlar va davlat xizmatchisi bilan ariza

beruvchi o'rtasidagi bevosita aloqalarning ko'pligi hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, ariza topshirish, hujjatlarni qabul qilish, davlat bojlarini to'lash va talabnoma holatini kuzatish jarayonlarining elektron shaklga o'tkazilishi korrupsiya xavflarini kamaytirishda muhim huquqiy va tashkiliy mexanizm sifatida namoyon bo'ldi.

O'zbekistonda intellektual mulk sohasidagi qonunchilikni takomillashtirish jarayoni xalqaro huquqiy hujjatlar bilan uyg'un holda amalga oshirilmoqda.

Mamlakat Jahon intellektual mulk tashkiloti (WIPO) tomonidan qabul qilingan qator xalqaro shartnomalar ishtirokchisi sifatida milliy qonunchilikni xalqaro standartlarga yaqinlashtirish bo'yicha majburiyatlarni o'z zimmasiga olgan. Bu esa patent huquqi, tovar belgilari muhofazasi, mualliflik huquqi va raqamli texnologiyalar sohasidagi huquqiy normalarni takomillashtirishga asos bo'lmoqda.

O'tgan to'rt yilda 16 ta qonun qabul qilindi, ular asosida 25 dan ortiq qonunosti hujjatlari ishlab chiqildi. Milliy qonunchilik Jahon savdo tashkilotining TRIPS bitimi talablariga uyg'unlashtirildi. Shuningdek, O'zbekiston intellektual mulk sohasidagi 19 ta xalqaro shartnomaga qo'shildi. Bu boradagi islohotlar natijasida Global innovatsion indeksda O'zbekistonning o'rnini 2020 yildagi 93-o'ringandan 2025 yilda 79-o'ringa ko'tarildi.

Ayniqsa, davlat xizmatlarini ko'rsatishda "inson omilini kamaytirish" tamoyili asosida ish yuritish korrupsiyaga qarshi samarali vosita sifatida e'tirof etilmoqda.

Chunki qaror qabul qilish jarayoni qanchalik avtomatlashtirilsa, mansabdor shaxsning sub'ektiv ta'sir o'tkazish imkoniyati shunchalik kamayadi. Shu sababli intellektual mulk sohasida elektron tizimlarni joriy etish nafaqat xizmat ko'rsatish

tezligi va sifatini oshiradi, balki korrupsiyaviy holatlarning oldini olishga ham xizmat qiladi.

## **2. Intellektual mulk obyektlarini ro'yxatdan o'tkazish jarayonida korrupsiyaviy xavf-xatarlarning huquqiy tabiati va ularni minimallashtirish mexanizmlari**

Intellektual mulk obyektlarini ro'yxatdan o'tkazish jarayonida korrupsiyaviy xavf-xatarlar masalasi huquqiy davlat va samarali davlat boshqaruvi tamoyillari nuqtai nazaridan alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki intellektual mulk obyektlariga nisbatan huquqiy muhofaza hujjatlarining berilishi (patent, guvohnoma va boshqa hujjatlar) shaxsning mulkiy va nomulkiy huquqlariga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Korrupsiyaviy xavf-xatar deganda davlat organlari yoki ularning mansabdor shaxslari tomonidan o'z vakolatlaridan shaxsiy yoki boshqa manfaatlar yo'lida qonunga xilof ravishda foydalanish imkoniyatini yuzaga keltiruvchi shart-sharoitlar tushuniladi.

2025 yil yakunlari bo'yicha korrupsiyani qabul qilish indeksi e'lon qilindi. Ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekiston 3 pog'ona pastlab, 100 balldan 31 ball to'plagan holda 182 ta davlat orasida 124-o'rinni egalladi, bu o'tgan yilga nisbatan 1 ballga kam.

Intellektual mulk sohasida bunday xavflar asosan talabnomalarni qabul qilish, ekspertiza o'tkazish, qaror qabul qilish, huquqiy muhofaza hujjatlarini rasmiylashtirish va reestrlarga ma'lumot kiritish jarayonlarida namoyon bo'lishi mumkin.

Intellektual mulk obyektlarini ro'yxatdan o'tkazish jarayonining o'ziga xos xususiyati shundaki, unda maxsus bilim va tajriba talab etiladigan ekspertiza ishlari

amalgam oshiriladi. Ekspert tomonidan ixtironing yangiligi, ixtirochilik darajasi, sanoatda qo'llanilishi yoki tovar belgisining farqlash xususiyatlarini baholash kabi masalalar ko'rib chiqiladi. Agar ushbu jarayonlarda aniq huquqiy mezonlar va shaffof baholash mexanizmlari mavjud bo'lmasa, sub'ektiv qarorlar qabul qilinishi uchun imkoniyat paydo bo'lishi mumkin.

Shu nuqtai nazardan, intellektual mulk sohasida korrupsiyaviy xavflarni bir nechta turlarga ajratish mumkin:

**Birinchidan, ma'muriy korrupsiyaviy xavflar.** Bular davlat xizmatlarini ko'rsatish jarayonida mansabdor shaxsning o'z vakolatlaridan foydalanib, muayyan shaxslarga asossiz ustunlik berish, talabnomani navbatdan tashqari ko'rib chiqish yoki rasmiy jarayonlarni sun'iy ravishda tezlashtirish bilan bog'liq holatlarni qamrab oladi.

**Ikkinchidan, ekspertiza jarayonidagi korrupsiyaviy xavflar.** Intellektual mulk obyektlarini baholash maxsus bilim va malakaga asoslanganligi sababli ekspert qarorlarining asoslanganligi muhim ahamiyatga ega. Ekspertiza natijalarini manfaatdor shaxslar ta'sirida o'zgartirish, ayrim talabnomalarga nisbatan boshqacha yondashuv qo'llash yoki huquqiy talablarni noto'g'ri talqin qilish korrupsiya xavflarini keltirib chiqarishi mumkin.

**Uchinchidan, axborot bilan bog'liq korrupsiyaviy xavflar.** Intellektual mulk obyektlariga oid ma'lumotlarning o'z vaqtida ochiqdanmasligi, davlat reestrlaridagi axborotlarni o'zgartirish imkoniyatining yetarlicha nazorat qilinmasligi yoki xizmat ma'lumotlaridan shaxsiy manfaatlar yo'lida foydalanish holatlari ham korrupsiyaviy risklar qatoriga kiradi.

**To'rtinchidan, manfaatlar to'qnashuvi bilan bog'liq xavflar.** Intellektual mulk sohasida faoliyat yurituvchi davlat xizmatchisi yoki ekspertning muayyan

tadbirkorlik sub'ekti, patent vakillari yoki boshqa manfaatdor shaxslar bilan shaxsiy aloqalari mavjud bo'lishi xolis qaror qabul qilishga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Korrupsiyaga qarshi samarali huquqiy mexanizmlardan biri — **ma'muriy tartib-taomillarni raqamlashtirish va avtomatlashtirish** hisoblanadi. Elektron tizimlar orqali talabnomalarni qabul qilish, hujjatlarni tekshirish, davlat bojlarini hisoblash va talabnoma harakatini kuzatish imkoniyati davlat xizmatchisi va ariza beruvchi o'rtasidagi to'g'ridan-to'g'ri aloqani kamaytiradi. Natijada korrupsiya uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlar qisqaradi.

*Masalan, har bir ekspertiza bosqichi kim tomonidan, qachon va qanday asosda amalga oshirilganligini aniqlash imkonini beruvchi elektron jurnallar korrupsiya holatlarini aniqlashda muhim vosita bo'lishi mumkin.*

### **3. Intellektual mulk sohasini raqamlashtirish va elektron davlat xizmatlari orqali korrupsiyaviy xavflarni kamaytirishning huquqiy mexanizmlari**

Zamonaviy davlat boshqaruvi sharoitida raqamlashtirish korrupsiyaga qarshi kurashishning eng muhim institutsional vositalaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda.

Intellektual mulk obyektlarini ro'yxatdan o'tkazish jarayoni ham yuqori darajada raqamlashtirilishi lozim bo'lgan davlat xizmatlaridan biri hisoblanadi. Chunki mazkur jarayonda ariza qabul qilish, hujjatlarni tekshirish, ekspertiza o'tkazish, qaror qabul qilish va davlat reestriga ma'lumotlarni kiritish kabi ko'p bosqichli ma'muriy harakatlar amalga oshiriladi. Agar ushbu jarayonlarning har bir bosqichi raqamli texnologiyalar asosida amalga oshirilsa, korrupsiyaviy xavflarning kelib chiqish ehtimoli sezilarli darajada kamayadi.

O'zbekistonda davlat xizmatlarini raqamlashtirish siyosati doirasida intellektual mulk sohasida ham bir qator muhim o'zgarishlar amalga oshirildi. Xususan, intellektual mulk obyektlarini ro'yxatdan o'tkazish bo'yicha arizalarni elektron shaklda topshirish, davlat bojlarini onlayn to'lash, talabnoma holatini kuzatish va tegishli ma'lumotlarni elektron tarzda olish imkoniyatlari yaratildi. Bu esa fuqarolar va tadbirkorlarning davlat organlariga murojaat qilish jarayonini soddalashtirib, ortiqcha ma'muriy to'siqlarni qisqartirdi.

Raqamlashtirishning korrupsiyaga qarshi ta'siri bir nechta muhim yo'nalishlarda namoyon bo'ladi.

Avvalo, **shaffoflikni ta'minlash mexanizmi** sifatida elektron tizimlar muhim ahamiyatga ega. *Masalan, talabnoma topshirilgan vaqt, uning qaysi bosqichda ekanligi, qaysi mutaxassis tomonidan ko'rib chiqilayotgani haqidagi ma'lumotlarni elektron tarzda kuzatish imkoniyati davlat organi faoliyati ustidan nazoratni kuchaytiradi.* Bunda mansabdor shaxs tomonidan jarayonni asossiz kechiktirish yoki ma'lum bir shaxsga ustunlik berish imkoniyati cheklanadi.

Ikkinchidan, **qaror qabul qilish jarayonining raqamli izini saqlash** korrupsiyaning oldini olishda muhim huquqiy mexanizm hisoblanadi. Elektron tizimda har bir harakat, o'zgartish yoki qaror qayd etilishi natijasida keyinchalik uning qonuniyligi va asoslanganligini tekshirish imkoniyati paydo bo'ladi. Bu esa davlat xizmatchilarining mas'uliyatini oshiradi.

Uchinchidan, **avtomatlashtirilgan ekspertiza tizimlari** intellektual mulk sohasida korrupsiya xavfini kamaytirishda katta ahamiyat kasb etadi. An'anaviy ekspertiza jarayonida inson omili asosiy o'rinni egallaydi. Biroq zamonaviy texnologiyalar yordamida dastlabki patent qidiruvi, tovar belgilarining o'xshashligini aniqlash, hujjatlarning to'liqligini tekshirish kabi jarayonlarni

avtomatlashtirish mumkin. Bu ekspertning sub'ektiv yondashuvini kamaytirishga xizmat qiladi.

Shu o'rinda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish istiqbollari alohida ahamiyatga ega. Rivojlangan davlatlarda patent idoralari sun'iy intellekt asosidagi axborot tizimlaridan patent qidiruvi, tasniflash va tahliliy ishlar uchun foydalanmoqda. Bunday tizimlar ekspertga qaror qabul qilishda yordamchi vosita sifatida xizmat qiladi va ekspertiza sifatini oshiradi.

O'zbekiston sharoitida ham intellektual mulk obyektlarini ro'yxatdan o'tkazish jarayonida sun'iy intellektdan foydalanishning huquqiy asoslarini shakllantirish istiqbolli yo'nalish hisoblanadi. Bunda sun'iy intellekt tomonidan berilgan tavsiyalar **yakuniy qaror o'rnini bosmasligi**, balki ekspert qarorini asoslashga **yordam beruvchi** vosita sifatida belgilanishi lozim.

Intellektual mulk sohasida korrupsiya xavflarini kamaytirishda blokcheyn texnologiyalaridan foydalanish ham muhim ahamiyatga ega bo'lishi mumkin. Blokcheyn texnologiyasining asosiy xususiyati ma'lumotlarni o'zgartirib bo'lmaydigan tarzda saqlash imkoniyatidir. Bu texnologiya orqali intellektual mulk obyektlariga oid ma'lumotlarning qaysi vaqtda va kim tomonidan kiritilganligini aniq belgilash mumkin bo'ladi.

***Masalan,** patent yoki tovar belgisiga oid davlat reestri ma'lumotlarini blokcheyn asosida saqlash orqali ma'lumotlarni noqonuniy o'zgartirish xavfini kamaytirish mumkin. Bu nafaqat korrupsiyaga qarshi kurashish, balki intellektual mulk huquqlarining ishonchli muhofazasini ta'minlashga ham xizmat qiladi.*

Shuningdek, raqamli tizimlarning o'zi ham korrupsiyadan xoli bo'lishi kerak. Ya'ni axborot tizimlariga kirish huquqlarini nazorat qilish, ma'lumotlardan foydalanish jarayonini monitoring qilish va tizim xavfsizligini muntazam tekshirib

borish talab etiladi. Aks holda raqamli vositalar korrupsiyani kamaytirish o'rniga yangi xavflarni yuzaga keltirishi mumkin.

#### **4. Xorijiy davlatlar tajribasi: intellektual mulkni ro'yxatdan o'tkazish jarayonlarida korrupsiya xavflarini kamaytirish mexanizmlari**

Intellektual mulk obyektlarini ro'yxatdan o'tkazish jarayonida korrupsiyaviy xavflarni minimallashtirish masalasida xorijiy davlatlarning tajribasi muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega. Rivojlangan davlatlarda intellektual mulkni boshqarish tizimlari asosan uchta muhim tamoyilga: **shaffoflik, raqamlashtirish va qaror qabul qilish jarayonining nazorat qilinish imkoniyatiga** asoslangan.

##### **AQSh tajribasi**

Amerika Qo'shma Shtatlarida intellektual mulk obyektlarini ro'yxatdan o'tkazish tizimi dunyodagi eng rivojlangan tizimlardan biri hisoblanadi. Bu sohadagi asosiy vakolatli organlardan biri AQSh Patent va tovar belgilari idorasi (USPTO) hisoblanadi.

AQSh tajribasining o'ziga xos jihati shundaki, patent va tovar belgilarini ro'yxatdan o'tkazish jarayoni maksimal darajada elektron shaklga o'tkazilgan. Ariza berish, hujjatlarni qabul qilish, ekspertiza natijalarini kuzatish, qarorlar bilan tanishish va shikoyat qilish jarayonlari raqamli platformalar orqali amalga oshiriladi.

##### **Yevropa Ittifoqi tajribasi**

Yevropa Patent Idorasi (EPO) faoliyatida raqamli texnologiyalar keng qo'llaniladi. Patent talabnomalarini qabul qilish, patent qidiruvi, ekspertiza va qaror qabul qilish jarayonlari yagona elektron tizimlar orqali amalga oshiriladi.

Yevropa tajribasining muhim jihati — ekspertiza jarayonlarida **ko'p bosqichli huquqiy nazorat tizimi** mavjudligidir. Ya'ni qarorlar faqat bir shaxs

yoki bir bo‘limning ixtiyoriga bog‘liq bo‘lib qolmaydi, balki belgilangan tartibda qayta ko‘rib chiqish va shikoyat qilish mexanizmlari mavjud.

### **Yaponiya tajribasi**

Yaponiya tajribasining muhim xususiyati — ekspertiza jarayonida yuqori darajadagi kasbiy standartlar va texnologiyalarning uyg‘unlashganligidir. Patent talabnomalarini tahlil qilishda katta hajmdagi ma’lumotlar bazalari, avtomatlashtirilgan qidiruv tizimlari va intellektual dasturlardan foydalaniladi.

Bunday yondashuv ekspertning shaxsiy qarashlariga bog‘liqlikni kamaytiradi va qaror qabul qilishning xolisligini oshiradi. Shu bilan birga, Yaponiyada davlat xizmatchilarining kasbiy etikasi va manfaatlar to‘qnashuvining oldini olish mexanizmlariga katta e’tibor qaratiladi.

### **Janubiy Koreya tajribasi**

Koreya tajribasida korrupsiya xavflarini aniqlash uchun axborot tizimlaridan foydalaniladi. ***Masalan,** talabnomalarni ko‘rib chiqish muddatlari, ekspertlar ish yuklamasi va qarorlar statistikasi tahlil qilinib, xavfli holatlar aniqlanadi.*

### **Singapur tajribasi**

Singapur modelida asosiy e’tibor foydalanuvchi uchun qulay, tezkor va shaffof xizmat ko‘rsatishga qaratilgan. Ariza berishdan tortib, qaror qabul qilishgacha bo‘lgan jarayonlar elektron muhitda amalga oshiriladi.

## **5.1. Intellektual mulk sohasida “korrupsiyaviy xavflarni huquqiy baholash modeli”ni joriy etish**

Maqolada ilmiy yangilik sifatida intellektual mulk obyektlarini ro‘yxatdan o‘tkazish jarayoni uchun “korrupsiyaviy xavflarni huquqiy baholash modeli”ni joriy etish taklif etiladi.

Ushbu model uch bosqichdan iborat bo‘lishi mumkin:

### **Birinchi bosqich — profilaktik huquqiy tahlil**

Bu bosqichda ro'yxatdan o'tkazish jarayonida korrupsiya kelib chiqishi mumkin bo'lgan nuqtalar oldindan aniqlanadi.

### **Ikkinchi bosqich — raqamli monitoring**

Bu bosqichda axborot texnologiyalari orqali jarayonlar doimiy kuzatib boriladi.

### **Uchinchi bosqich — huquqiy ta'sir choralari**

Bu model korrupsiyaga qarshi kurashishni faqat jazolash emas, balki oldini olish tamoyili asosida tashkil etish imkonini beradi.

Intellectual mulk obyektlarini ro'yxatdan o'tkazishda eng muhim bosqich — ekspertiza jarayonidir. Shu sababli mazkur bosqichning huquqiy kafolatlarini kuchaytirish korrupsiyaviy xavflarni kamaytirishning asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Shuningdek, murakkab intellektual mulk obyektlari bo'yicha kollegial ekspertiza mexanizmlarini kengaytirish. Kollegial ekspertiza bir shaxsning sub'ektiv ta'sirini kamaytiradi va qarorlarning xolisligini oshiradi.

### **5.4. Patent vakillari institutini takomillashtirish**

Intellectual mulk sohasida korrupsiyaviy xavflar nafaqat davlat organlari faoliyati, balki xususiy vositachilar faoliyati bilan ham bog'liq bo'lishi mumkin.

Shu sababli patent vakillari institutini takomillashtirish muhim ahamiyatga ega.

### **5.5. Qonunchilikni takomillashtirish bo'yicha takliflar**

O'tkazilgan tahlillar asosida quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

**1. "Intellectual mulk obyektlarini ro'yxatdan o'tkazishda korrupsiyaviy xavflarni baholash tartibi to'g'risida"gi maxsus normativ hujjat qabul qilish.**

## **2. Intellektual mulk sohasida yagona raqamli platforma yaratish.**

### **3. Ekspertiza jarayonlarida sun'iy intellektdan foydalanishning huquqiy asoslarini belgilash.**

Bunda sun'iy intellekt mustaqil qaror qabul qiluvchi emas, balki ekspertga yordam beruvchi vosita sifatida belgilanishi lozim.

Yuqoridagilargna asosan quyidagi **ilmiy-amaliy takliflar** ilgari suriladi:

1. Intellektual mulk obyektlarini ro'yxatdan o'tkazish jarayonida korrupsiyaviy xavflarni aniqlash va baholash bo'yicha maxsus uslubiy qoidalar ishlab chiqish.

2. Intellektual mulk sohasida yagona raqamli boshqaruv platformasini yaratish va unda:

3. Ekspertiza jarayonlarida sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning huquqiy asoslarini belgilash.

4. Intellektual mulk obyektlari davlat reestrlarining ochiqlik darajasini oshirish va jamoatchilik nazorati mexanizmlarini kuchaytirish.

5. Ekspertlar va patent vakillari faoliyatida manfaatlar to'qnashuvini oldini olish bo'yicha maxsus talablarni kuchaytirish.

6. Intellektual mulk sohasida korrupsiyaviy risklar bo'yicha muntazam tahliliy hisobotlarni tayyorlash va ular asosida profilaktik choralarni belgilash.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2023.

2. O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonuni.

3. O‘zbekiston Respublikasining “Tovar belgilari, xizmat ko‘rsatish belgilari va tovar kelib chiqqan joy nomlari to‘g‘risida”gi Qonuni.

4. O‘zbekiston Respublikasining “Ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari to‘g‘risida”gi Qonuni.

5. O‘zbekiston Respublikasining “Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to‘g‘risida”gi Qonuni.

6. World Intellectual Property Organization (WIPO). Intellectual Property Handbook: Policy, Law and Use. Geneva.

7. WIPO. Intellectual Property and Digital Transformation. Geneva.

8. OECD. Recommendation of the Council on Public Integrity. Paris.

9. United States Patent and Trademark Office. Performance and Accountability Report.

10. Japan Patent Office. Annual Report on Intellectual Property.

11. Korean Intellectual Property Office. Intellectual Property Statistics.

12. Intellectual Property Office of Singapore. Annual Report.

13. Bently L., Sherman B. Intellectual Property Law. Oxford University Press.

14. Cornish W., Llewelyn D., Aplin T. Intellectual Property: Patents, Copyright, Trade Marks and Allied Rights.

15. Drahos P. A Philosophy of Intellectual Property.

16. Floridi L. The Ethics of Artificial Intelligence.

17. World Bank. Digital Governance and Anti-Corruption Mechanisms.

18. UNODC. United Nations Convention against Corruption.